

Fan olimpiadalarining II-bosqichiga start berildi

Respublika II-bosqich talabalar Respublika fan olimpiadasida 50 ta mutaxassislik va 42 ta umumkasbiy fanlardan, jami 92 ta fan bo'yicha fan olimpiadalari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Joriy yilning 13 maydan 18 maygacha davom etadigan Respublika fan olimpiadasining ikkinchi bosqichida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4 ta fan bo'yicha olimpiadalarga mezbonlik qilmoqda. Jumladan "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi" umumkasbiy fanidan 13-14 may, "Davlat kadastrlari" 15-16 may "Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti" 15-16 may, hamda "Qishloq xo'jaligi mashinalari" 17-18 may, kunlari mutaxassislik fanlaridan bo'lib o'tadi.

13-14 may kunlari "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi" fanidan olimpiadaga start berildi, jami 7 ta institut va universitetlardan qatnashmoqda. Respublika fan olimpiadasining ikkinchi bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. 6 kun davom etishi rejalashtirilgan Respublika fan olimpiadasining ikkinchi bosqichida 4 ta fan bo'yicha talabalar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadi.



Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi metodisti Z.Temirova axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov